O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU. ILMIY XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

H.A.Saipova
Kompozitsion bog'lanishli nutqni shakllantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar 5
A.T.Nazarov
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini sport turizmiga oid bilimlarida irodaviy sifatlar 9
E.T.Umarov
Falsafa ta'limi asosida bo'lajak pedagoglarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik jihatlari 12
M.A.G'ofurova
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorligi 16
M.M.Mo'minova, V.T.Jo'rayev, M.M.Turdimatov
Bo'lajak pedagoglarning axborot xavfsizligi kompetensiyasini baholash mezonlari va metodlari 21
L.S.Isroilova
Talabalarni dasturlashga oid mustaqil ta'limini tashkil etishda virtual muhitlarning amaliy samaradorligi 27
G.T.Hojikarimova
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini shakllantirishda mustaqil ta'limni tashkil etish 31
A.A.Абдуманонов
Проблемы и решения оценки практических навыков студентов медицинских учебных заведений 36
Н.Н.Бобожонов, П.Д.Мамутов
Влияние различных методов силовой тренировки на показатели прыгучести и скорости в волейболе у студентов вузов 40
M.A.Esonmirzayeva
Bo'lajak pedagoglarda texnologik metakompetentlikni shakllantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar 43
M.A.Esonmirzayeva
Metakompetensiyalarni samarali boshqarishga yordam beruvchi ko'nikmalar 47
E.E.Tadjibayev
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishning zaruriyati 51
S.A.Maxmudova
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish 55
M.E.Madaminova
Talabalarning texnik ijodkorligini rivojlantiish mazmuni va metodik asoslari 59
M.B.Kamoldinov
Bo'lajak pedagoglarda konfliktologik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy metodik tizimi 63
Z.A.Davlataliyeva
Talabalarning o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga doir faoliyatini tashkil etish usullari 67
F.A.Hamdamova
Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash modeli 71
B.A.G'ofurova
Oliy ta'lim jarayonida talabalarda konseptual fikrlashni rivojlantirish metodikasini amaliyotga joriy etish 75
N.O.Xaydarova
Tibbiyot oliy ta'lim talabalarining refleksiv madaniyatini rivojlantirish omillari 78
U.I.Obidjanov
Zoologiya darslarida zamonaviy interaktiv metodlardan foydalanish: samaradorlik va

FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University
Volume 31 Issue 5, 2025-yil DOI: 10.56292/SJFSU/vol31_iss5/a11

UO'K: 37.01:005.95/.96:159.9

METAKOMPETENSIYALARNI SAMARALI BOSHQARISHGA YORDAM BERUVCHI KO'NIKMALAR

НАВЫКИ, СПОСОБСТВУЮЩИЕ ЭФФЕКТИВНОМУ УПРАВЛЕНИЮ МЕТАКОМПЕТЕНЦИЯМИ

SKILLS THAT CONTRIBUTE TO EFFECTIVE MANAGEMENT OF META-COMPETENCIES

Esonmirzayeva Madinabonu Abduboqiyevna
Farg'ona davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Metakompetentlik-bu shaxsning o'zining bilimlari va ko'nikmalarini boshqarish, ularni samarali ravishda qo'llash va rivojlantirish qobiliyati, bu boradagi bilim va ko'knikmalari majmuasini anglatadi. Mazkur konsepsiya asosan ta'limning pedagogik jarayonlarini va shaxsiy rivojlanish sohalarini o'z ichiga qamrab oladi. Metakompetentlikning birinchi va eng muhim sifati, bu - o'z-o'zini anglashdir. Inson o'z kuchli va zaif tomonlarini, shuningdek, qiziqishlari va maqsadlarini aniqlash orqali o'zining shaxsiy rivojlanishini samarali ravishda rejalashtira oladi. Bu sifat yordamida odamlar o'zlarini yanada yaxshi tushunishga erishadilar va kelajakdagi muvaffaqiyatlari va yutuqlari yoritilgan.

Аннотация

В данной статье метакомпетентность определяется как способность человека управлять своими знаниями и навыками, эффективно применять и развивать их, а также представляет собой совокупность знаний и умений в этой области. Данная концепция в основном охватывает педагогические процессы обучения и сферы личностного развития. Первым и самым важным качеством метакомпетентности является самосознание. Человек может эффективно планировать свое личностное развитие, определяя свои сильные и слабые стороны, а также интересы и цели. Благодаря этому качеству люди достигают лучшего самопонимания, что способствует их будущим успехам и достижениям.

Abstract

In this article, Metacompetence refers to a person's ability to manage their knowledge and skills, apply them effectively, and develop them, representing a set of knowledge and skills in this area. This concept mainly covers the pedagogical processes of education and areas of personal development. The first and most important quality of metacompetence is self-awareness. A person can effectively plan their personal development by identifying their strengths and weaknesses, as well as interests and goals. Through this quality, people gain a better understanding of themselves and their future successes and achievements are highlighted.

Kalit so'zlar: *metakompetensiyalar, samarali boshqaruv, o'z-o'zini anglash, pedagogik jarayonlar, shaxsiy rivojlanish, bilim va ko'nikmalarni boshqarish.*

Ключевые слова: *метакомпетенции, эффективное управление, самосознание, педагогические процессы, личностное развитие, управление знаниями и навыками.*

Key words: *metacompetencies, effective management, self-awareness, pedagogical processes, personal development, knowledge and skills management.*

KIRISH

Texnologiyalar tez rivojlanayotgan, mehnat bozorida doimiy o'zgarayotgan bugungi sharoitda oddiy kompetensiyalar tezda eskiradi. Shu sababli, zamonaviy ish muhitida metakompetensiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Metakompetensiyalarga ega bo'lgan insonlar yangi loyihalarga tez moslasha oladi, jamoa bilan ishlashda muvaffaqiyatli bo'ladi, murakkab qarorlar qabul qilishga qodir bo'ladi va kasbiy jihatdan doimiy rivojlanadi. Bu ularning mehnat bozoridagi qadriyatini oshiradi va shaxs hamda tashkilot raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

"Mamlakatimizda shaxsni har tomonlama kamol topishi, ta'lim jarayoniga to'liq jalb etish, ulardagi shijoatni yanada oshirish, manfaatlarini ro'yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta'lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida ta'limda noan'anaviylik, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, turli xildagi o'qitish metodlarni,

dasturlarni amaliyotda maqsadli ravishda qo'llagan holda ta'lim jarayonlarini ish metodlarni, dasturlarni amaliyotda maqsadli ravishda qo'llagan holda ta'lim jarayonlarini tashkil etish, talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirishga asos bo'lib hizmat qilmoqda "[1,2.].

Yoshlarning yuksak iqtidor egasi va bilimli qilib ta'lim-tarbiya berishda pedagoglarning o'rni muhum ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Yoshlar intellektual salohiyatini ijtimoiy-madaniy jihatlari "intellektual salohiyat" sifatida "inson faoliyatining intellektual tomonini aks ettiradi, bu esa kasbiy vakolatlarga oid masalalar bilan chambarchas uzviy bog'liq"[2,6.] bo'ladi. Bu borada bo'lajak pedagoglarning metakompetentligi yuksaltirishda pedagogning o'z bilimlari, ko'nikmalari va qobilyatlarini taxlil qilish, yangi bilimlarni ishlab chiqish, tanqidiy fikirlash, o'zini anglash, hayotdagi turli vaziyatlarga moslashish va ularga samarali yondashishda o'z samarasini beradi. Metakompetentlik pedagogning nafaqat kasbiga bo'lgan munosabati, balki pedagogik muammolarni hal qilish bilan birga, bilim va qobiliyatlarini anglash va ularni samarali ravishda boshqarish, o'z qobiliyatlarini turli vaziyatlarda qanday qo'llashni tushunish va rivojlantirishdagi usullariga ham ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, yangi muammolarga moslashish hamda yondashuv va strategiyalarini qayta ko'rib chiqish va kuchli hamda zaif tomonlarni hisobga olib, ish yoki o'qish jarayonini optimallashtirish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Jarayonda bilim va qobiliyatlarini anglash, o'zini tanish va rivojlantirish, takomillashtirishdan iborat jarayondir. Insonning ichki imkoniyatlari va chegaralarini bilish, o'zining kuchli tomonlarini aniqlash va zaif tomonlarini yaxshilashga yordam beradi.

Mamlakatimizda oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasida ham "o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish" [3,46,48.] ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Jamiyatda yoshlarning qobiliyatlarini yuksaltirishga xizmat qiladigan ajdodlar ilmiy merosini o'rganish, milliy qadriyatlarga hurmatini kuchaytirish asosida zamonaviy tarbiyaviy mexanizmlarni yaratish, yoshlar ma'naviy madaniyatidagi kognitivlik, siyosat, axloq tadrijiyligi va shaxs, jamiyat, davlatning obyektiv imkoniyatlarini pedagogik jihatlarini ochib berish dolzarb vazifalardan biri bo'lmoqda. Metakompetentsiyani rivojlantirish tajriba orttirish jarayonida ta'lim oluvchi "muayyan fan sohasida turli xulq modellarini topish va sinab ko'rish, ular ichidan uning tarziga, talablariga, didiga va qadriyatlariga eng moslarini tanlash" orqali mukammallashib boradi. Shu tariqa, kompetentsiya − bu insonning shaxsiy xususiyati, individning turli vazifalarni bajarishga tayyorligi bo'lib, faoliyat davomida shakllanadi va shu faoliyatga bo'lgan qadriyat-mazmun munosabatini shakllantiradi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining metakompetentsiyasini rivojlanganlik darajasini aniqlashda, baholash vositalari fondini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarining metakompetentsiyasini rivojlanganlik darajasini baholashning diagnostik vositalarini ishlab chiqish metodikasini K.F.Gabdraxmanova[4,77,78.], kompetentsiyalarni baholash uchun baholash vositalari tipologiyasi L.M.Boltunova, I.N.Emelyanovalar, ko'p darajali ta'lim dasturlarini amalga oshirishda baholash vositalarini loyihalashga oid metodik ko'rsatmalar bo'yicha V.A.Bogoslovskiy, Ye.V.Karavaeva, E.N.Kovtun va boshqalar, texnika OTMlari talabalarining o'z o'zini yuksaltiruvchi kompetentsiyalarini kvalimetrik baholash texnologiyalari vositasida loyihalash G.R.Garafutdinovalar tomonidan tadqiq etilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yangi muammolarga moslashish hamda yondashuv va strategiyalarini qayta ko'rib chiqish va kuchli hamda zaif tomonlarni hisobga olib, bilim va qobiliyatlarini anglash, o'zini tanish va rivojlantirish, takomillashtirishdan iborat bo'ladi.

Bu borada yoshlarning intellektual ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning asl maqsadi sifatida quydagilarga alohida e'tibor qaratish mumkin:

– yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va uni muhofaza qilish;

– ilm-fan va davlat hokimiyati hamjihatligidagi sa'y-harakati, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish;

– intellektual zaxiralarni muhofaza qilish va rivojlantirish;

– intellektual ijodiy salohiyatni rivojlantirish ishlarini tartibga solish;

– yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi psixologik-pedagogik tashkiliy-uslubiy asoslarini yaratishdan iborat bo'ladi.

MUHOKAMA

Metakompetentlik insonning ichki imkoniyatlari va chegaralarini bilish, o'zining kuchli tomonlarini aniqlash va zaif tomonlarini yaxshilashga yordam beradi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim (person-oriented education) sharoitida bo'lajak pedagoglarda metakompetentlikni rivojlantirishning tashkiliy-metodik tizimini takomillashtirishda, ta'limning pedagogik modelini takomillashtirish, talabalarda jamiyatni va ijtimoiy hodisalarni o'rganishga qiziqishini ortirish jarayonida integrativ yondashuvning o'ziga xos jihatlarini aniqlashtirish, ijtimoiy hamkorlikni tashkil etishning interfaol texnologiyalarini ishlab chiqish hamda samarali foydalanish, oliy ta'lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish, bugungi kunda eng muhum kerakli bo'lgan omillardan biri hisoblanadi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarda metakompetentlikni rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirish, integrativ-fasilitatsion ta'lim muhitini yaratish orqali kasbiy faoliyatga yo'nalganlikni tarkib toptirish modelini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Bu borada DTS me'yorlari va OTM talablarining asosli jamlanmasi quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi.

Birinchidan; mintaqa va OTMning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda milliy talablarga aniqlik kiritish;

Ikkinchidan; o'zlashtirilayotgan yo'nalish yoki tayyorlash dasturiga muvofiq, kompetentsiyalarga berilgan ta'riflarga aniqlik kiritish;

Uchinchdani; kompetentsiyalarga berilgan ta'riflarni tushuntirish yoki soddalashtirish;

To'rtinchidan; kompetentsiyalarni darajalar, ko'rsatkichlar va deskriptlar bo'yicha tarkiblashtirish.

O'quv dasturini o'zlashtirish bo'yicha rejalashtirilgan natijalar –bu ta'lim oluvchilarning ta'lim standartida belgilangan kompetentsiyalariga qo'shimcha ravishda, ta'lim dasturining yo'nalishi (profili)ni hisobga olgan holda, tashkilot tomonidan belgilangan kompetentsiyalar (bunday kompetentsiyalar belgilangan taqdirda) sifatini, uning ishlab chiqarish qobiliyati tajriba, bilim, ko'nikma, malakalar sinergiyasi shaklida noyob nusxa ko'chirish qiyin bo'lgan resurs sifatida namoyon bo'lishi[5,33,34.] inobatga olingan. Ta'limni modernizatsiya qilish oliy o'quv yurtida o'qishning asosiy vazifasi, malakali, raqobatbardosh, barkamol, mas'uliyatli, o'z kasbini mukammal biladigan, tegishli faoliyat sohalariga yo'naltirilgan, samarali faoliyat yurita oladigan, jahon standartlari darajasida, doimiy kasbiy o'sishga tayyor, professional mobillikni namoyon etgan mutaxassisni tayyorlashni nazarda tutadi. Bo'lajak pedagogning bilim va qobiliyatlarini anglash uchun bir nechta yo'llari mavjud bo'lib chiqadi bularga:

– o'zini tahlil qilish, bunda, o'zaro suhbatlar, o'zini baholash yoki kundalik yozish orqali o'z fikr va hissiyotlarini aniqlash;

– o'rgatish va o'rganish bo'yicha, boshqalarga o'rgatish yoki yordam berish orqali, o'z bilim va qobiliyatlarini yanada yaxshi tushunish;

– boshqalar bilan solishtirish bo'yicha, kasbiy qobiliyatlarini boshqalar bilan solishtirish, lekin bu sog'lom muhit bilan o'z-o'zini tahlil qilishni o'z ichiga olishi;

– doimiy o'rganish uchun, ushbu jarayonda yangi narsalarni o'rganish orqali tajriba orttirish va qiyinchiliklarga qarshi turish orqaligina o'z bilim va qobiliyatlarini kengaytirish va takomillashtirish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Bu qobilyati doimiy ravishda o'qib-o'rganishlar, yangilikka intilish, izlanishlar, muntazam harakatlar orqali shakllantiriladi va takomillashib, mukammallashib boradi. Bu o'z navbatida talabaga yaratilga muhitga ham bog'liqdir. Bunda talaba o'zini-o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi, maqsadli harakatlarda erishishi, natijadorlikni qo'lga kiritishi va bu faoliyatlarni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek pedagogik xarakterdagi ijodkorlik, yaratuvchanlikka alohida e'tibor qaratishi zarur.

Yuqoridagi fikrlar asosida metakompetentlikka mualliflik tarifimizni keltiramiz: Metakompetentlik integral xususiyatga egadir. U kasbiy faoliyat jarayonida paydo bo'ladigan vaziyatlarda kasbiy-ijtimoiy-shaxsiy muammolar va kasbiy-ijtimoiy topshiriqlarni hal yeta olish

qobiliyati va tayyorlik darajasi bo'lib, bilim, ko'nikma, malaka, kasbiy va hayotiy tajribani, qadriyatlar va madaniyatni ishga solishni nazarda tutadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 29 декабрдаги "2017-2021 йилларда мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-2707- сон қарори.

2. Live Online Tutoring That Feels Like In-Person Tutoring Call (917) 722-0677

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: "O'zbekiston". 2022y. 4.Mavlonova R. va b.q. Pedagogika. Darslik. -Toshkent.: O'qituvchi, 2001y.

5. Uzluksiz ma'naviy tarbiya Kontseptsiyasi". – Toshkent, 2019y.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли Фармони.

7. Prezident SH.M.Mirziyoyev pedagoglar bilan muloqoti. https://president.uz/oz/lists/view/7587. 30.09.2024.

8. Metakompetentlik: pedagogik faoliyatda yangi yondashuvlar" (Muallif: L. I. Miroshnichenko)

9. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining metakompetentligini rivojlantirish nazariy metodik asoslari-T., "Xalq ta'limi" ilmiy metodik jurnali 2016-yil (Muallif: S. S. Babajonov)

10. Ломовцева О.А., Прядко С.Н. Использование квалиметрическогоподхода для оценки стержневых компетенций научно–образовательных организатсій// НАУЧНЫЕ ВЕДОМОСТИ. Серия Экономика. Информатика. 2016. №16 (237). Выпуск 39.